


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-dekabr)


Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha joriy yilning yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 633,4 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,8 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 696,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 122,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4 936,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 305,1 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,2 %) tashkil etdi.

### Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2018-yilning shu davriga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Taxiatosh tumani, Nukus shahri, Chimboy va Qo'ng'iroq tumanlarida qayd etildi.

### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Nukus shahri (respublika umumiy hajmiga nisbatan ulushi - 30,2 %), Beruniy (9,5 %), Xo'jayli (9,5 %), To'rko'l (9,0 %) va Qo'ng'irot (7,0 %) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobji ta'sir ko'rsatdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,8 % ga o'sdi va 696,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,4 % iga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 4 936,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 9,3 % ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,6 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)

2018-yil  
yanvar-dekabr




2019-yil  
yanvar-dekabr



  Yirik korxonalar  
  Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

### Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, (%)



  Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik  
  Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Qonliko'l (99,8 %), Qorao'zak (99,6 %), Kegayli (99,5 %), Nukus (99,4 %) va Shumanoy (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (31,0 %), Taxiatsosh (18,7 %) va To'rtko'l (10,3 %) tumanlarida kuzatilgan.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>696 741,6</b>	<b>122,8</b>	<b>4 936 679,4</b>	<b>109,3</b>
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	20 906,2	82,9	364 914,7	109,1
Beruniy	12 511,2	90,6	523 192,5	108,6
Qonliko'l	310,0	130,7	145 239,5	107,9
Qorao'zak	764,0	62,2	186 116,6	108,3
Kegayli	689,1	87,3	139 997,9	106,0
Qo'ng'iroq	16 358,8	139,4	380 275,4	116,4
Mo'ynoq	737,4	82,1	40 168,8	110,0
Nukus	645,8	84,1	101 777,8	107,6
Taxiatsosh	25 139,4	85,4	109 140,6	120,0
Taxtako'pir	1 701,6	164,9	147 587,4	108,9

To'rtko'l	51 901,3	82,4	453 292,7	113,7
Xo'jayli	12 086,9	113,8	524 164,4	110,4
Chimboy	19 611,7	115,6	209 918,6	116,2
Shumanoy	934,8	90,4	123 273,7	110,0
Ellikqal'a	5 961,1	136,4	315 447,7	107,6
Nukus sh.	526 482,4	136,3	1 172 171,0	104,7

2019-yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi respublika bo'yicha aholi jon boshiga 2 990,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,1 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan respublikamizning barcha tumanlarida o'sish qayd etilib, eng yuqori ko'rsatkichlar Nukus shahri (5 353,5 ming so'm), Xo'jayli (4 399,1 ming so'm) va Taxtako'pir (3 732,2 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Mo'ynoq (1 298,6 ming so'm), Taxiatosh (1 831,9 ming so'm) va Kegayli (1 948,6 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich respublika shahar va tumanlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

**Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi**

	Ming so'm	O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>2 990,0</b>	<b>109,1</b>
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	1 956,5	105,3
Beruniy	2 826,9	105,9
Qonliko'l	2 876,5	106,7
Qorao'zak	3 552,9	107,2
Kegayli	1 948,6	130,8
Qo'ng'iroq	3 072,3	115,9
Mo'ynoq	1 298,6	107,6
Nukus	2 060,8	105,0
Taxiatosh	1 831,9	110,2
Taxtako'pir	3 732,2	108,8
To'rtko'l	2 379,6	107,4
Xo'jayli	4 399,1	109,1
Chimboy	2 053,0	118,8
Shumanoy	2 222,0	108,8
Ellikqal`a	2 039,4	105,9
Nukus shahri	5 353,5	111,3

Jumladan, 2019-yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,9 % ni tashkil etib, 163,4 mld. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,8 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 99,7 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019-yil yanvar-dekabr)

Yil boshidan respublika bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 647,7 mld. so'mni tashkil qildi va 2018-yilning shu davriga nisbatan 9,2 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra 973,0 mld. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 101,4 % ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiyligi ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 59,1 % ni tashkil qilmoqda. Ushbu ko'rsatkichni tumanlar bo'yicha tahlil qilganda, Beruniy, Qorao'zak, Qo'ng'irot, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus va Ellikqal'a tumanlarida 100 % ni tashkil etgan.

### Yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 40,9 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarning aksariyati Xo'jayli (jamiga nisbatan ulushi – 94,5 %), Nukus shahri (40,0 %) va To'rtko'l (6,3 %) tumanlarida kuzatildi.

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mln. so'm)	O'tgan Yilning shu davriga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mln. so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>1 647 688,8</b>	<b>109,2</b>	<b>674 706,8</b>	<b>122,7</b>	<b>972 981,9</b>	<b>101,4</b>
<i>tumanlar:</i>						
Amudaryo	21 003,6	103,2	828,2	105,3	20 175,5	103,1
Beruniy	77 422,3	100,4	-	-	77 422,3	100,7
Qonliko'l	22 993,4	101,0	-	-	22 993,4	101,0
Qorao'zak	14 064,9	102,0	-	-	14 064,9	102,0
Kegayli	944,5	100,0	0,7	3,3	943,9	102,2
Qo'ng'irot	40 032,2	101,6	-	-	40 032,2	101,7
Mo'ynoq	3 440,6	102,2	-	-	3 440,6	102,2
Nukus	85 413,7	102,0	-	-	85 413,7	102,0
Taxiatosh	24 939,0	99,8	727,7	67,4	24 211,3	101,3
Taxtako'pir	10 990,7	100,6	48,4	112,8	10 942,4	100,5
To'rtko'l	83 713,1	94,7	5 262,7	47,8	78 450,4	101,4
Xo'jayli	36 1913,3	147,3	342 125,2	151,2	19 788,1	101,8
Chimboy	24 485,1	95,0	430,6	22,1	24 054,4	101,0
Shumanoy	438,0	99,4	3,9	25,0	434,1	102,2
Ellikqal'a	62 448,2	101,7	-	-	62 448,2	101,7
Nukus sh.	813 446,0	102,9	325 279,5	105,5	488 166,6	101,3

### Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quiyi o'sish sur'atlari To'rtno'l (94,7 %), Chimboy (95,0 %), Shumanoy (99,4 %) va Taxiatosh (99,8 %) tumanlarida qayd etildi.